

**STRUCTURAL-SEMANTIC AND DISCOURSE FEATURES OF THE “كَانَ + مُضَارِع” CONSTRUCTION IN ARABIC****Shavkat I. Aripov***Associate Professor, Candidate of Political Sciences**Department of Arabic Studies**Tashkent State University of Oriental Studies*aripovshavkat@mail.ru*Tashkent, Uzbekistan***Nazokat M. Maxmudova***1 year student of Master degree faculty**Department of Arabic Studies**Tashkent State University of Oriental Studies*mahmudovanazokat33@gmail.com*Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Arabic language, verb tenses, aspect category, analytical construction, kāna, imperfect verb, progressivity, background, discourse analysis, tense-aspect system, translation equivalence, structural-semantic analysis.

Received: 08.05.26**Accepted:** 09.05.26**Published:** 10.05.26

Abstract: This article analyzes the structural, semantic, and discourse features of one of the analytical verb constructions in Arabic, namely “كَانَ + مُضَارِع” kāna + muḍāri‘un – “was + present tense”, based on modern linguistic approaches. In traditional Arabic grammar, verb tenses are mainly explained through two forms – ماضٍ (past tense) and مضارع (present-future tense); however, actual language use shows that tense-aspect meanings are often expressed through analytical constructions. The study examines the role of this construction in expressing progressivity, background, habituality, and discourse functions. It also identifies its semantic correspondence with the English Past Continuous and the Uzbek “-ayotgan edi” form. The findings indicate that complex tense forms in Arabic are formed not at the morphological level, but at the level of constructional semantics.

ARAB TILIDA “كَانَ + مُضَارِع” KONSTRUKTSIYASINING STRUKTUR-SEMANTIK VA DISKURS XUSUSIYATLARI

Shavkat I. Aripov*Dotsent, siyosat fanlari nomzodi**Arabshunoslik oliy maktabi**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*aripovshavkat@mail.ru**Nazokat M. Maxmudova***Magistratura 1-bosqich talabasi**Arabshunoslik oliy maktabi**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston*mahmudovanazokat33@gmail.com*Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit soʻzlar: arab tili, fe'l zamonlari, aspekt kategoriyasi, analitik konstruktsiya, kāna, mudori' fe'l, davomiylik (progressivlik), fon (background), diskurs tahlili, zamon-aspekt tizimi, tarjima ekvivalentligi, struktur-semantik tahlil.

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilidagi analitik fe'l konstruktsiyalaridan biri bo'lgan “كَانَ + مُضَارِعَ” kāna + muḍāri'un – “edi + hozirgi-kelasi zamon” modelining struktur, semantik va diskurs xususiyatlari zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Arab tilida fe'l zamonlari an'anaviy ravishda ماضٍ (o'tgan zamon) va مضارع (hozirgi-kelasi zamon) shakllari orqali izohlansa-da, real nutqda zamon-aspekt ma'nolari ko'pincha analitik konstruktsiyalar orqali ifodalanadi. Tadqiqotda mazkur konstruktsiyaning davomiylik (progressivlik), fon (background), takroriylik (habituality) hamda diskursdagi roli ochib beriladi. Shuningdek, uning ingliz tilidagi Past Continuous va o'zbek tilidagi “-ayotgan edi” shakllari bilan semantik yaqinligi aniqlanadi. Natijalar arab tilida murakkab zamon shakllari morfologik emas, balki konstruktsiya-semantik darajada shakllanishini ko'rsatadi.

**СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ И ДИСКУРСИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ
КОНСТРУКЦИИ “كَانَ + مُضَارِعَ” В АРАБСКОМ ЯЗЫКЕ**

Шавкат И. Арипов*Доцент, кандидат политических наук**Высшая школа арабистики**Ташкентский государственный университет востоковедения*aripovshavkat@mail.ru*Ташкент, Узбекистан***Назокат М. Махмудова***Магистрант 1 курса**Высшая школа арабистики**Ташкентский государственный университет востоковедения*mahmudovanazokat33@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: арабский язык, глагольные времена, категория аспекта, аналитическая конструкция, kāna, несовершенный глагол, прогрессивность, фон, дискурсивный анализ, система времени и аспекта, переводческая эквивалентность, структурно-семантический анализ.

Аннотация: В данной статье анализируются структурные, семантические и дискурсивные особенности одной из аналитических глагольных конструкций арабского языка – “كَانَ + مُضَارِعٌ” kāna + muḍāri‘un – “был + настоящее время” на основе современных лингвистических подходов. В традиционной арабской грамматике временные формы глагола объясняются преимущественно через две формы – ماضٍ (прошедшее время) и مضارع (настоящее-будущее время), однако реальное употребление языка показывает, что значения времени и аспекта часто выражаются аналитическими конструкциями. В работе рассматривается роль данной конструкции в выражении длительности (прогрессивности), фоновых значений, повторяемости действия, а также её дискурсивные функции. Кроме того, определяется её семантическое соответствие форме Past Continuous в английском языке и конструкции “-ayotgan edi” в узбекском языке. Результаты показывают, что сложные временные формы в арабском языке формируются не на морфологическом, а на конструкционно-семантическом уровне.

Kirish. Zamon va aspekt kategoriyalari tilshunoslik fanida eng muhim va murakkab kategoriyalardan biri hisoblanadi. Har qanday til voqea-harakatlarning vaqtga nisbatan joylashuvi va ichki rivojlanish jarayonini ifodalash uchun turli grammatik va leksik vositalardan foydalanadi. Umumiy lingvistikada zamon voqeaning nutq vaqtiga nisbatan joylashuvini bildirsa, aspekt harakatning ichki strukturasi, ya'ni uning davomiyligi, tugallanganligi yoki takroriyligini ifodalaydi (Comrie, 1976).

Arab tilida fe'l tizimi an'anaviy ravishda ikki asosiy shakl – ماضٍ māḍīn – “o'tgan zamon” va مضارع muḍāri‘un – “hozirgi-kelasi zamon” orqali tavsiflanadi. Biroq bu yondashuv ko'proq morfologik xarakterga ega bo'lib, real nutqdagi murakkab zamon-aspekt ma'nolarini to'liq aks ettira olmaydi. Shu sababli zamonaviy tilshunoslikda arab tilining fe'l tizimi aspektual va konstruktsiyaviy yondashuv asosida qayta talqin qilinmoqda (Ryding, 2005).

Ko‘plab tadqiqotchilar arab tilida zamon kategoriyasi morfologik emas, balki semantik va sintaktik darajada mavjud ekanligini ta’kidlaydilar. Masalan, Wright (1898) arab tilidagi fe’l shakllari aslida zamonni emas, balki harakatning tugallangan yoki tugallanmaganligini ifodalashini qayd etadi. Xuddi shuningdek, Benmamoun (2000) arab tilida zamon ifodasi yordamchi fe’llar va konstruktsiyalar orqali yuzaga chiqishini ta’kidlaydi.

Shu nuqtayi nazardan, arab tilidagi analitik konstruktsiyalar alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Ular orasida “مُضَارِع + كَانْ” kāna + muḍāri‘un – “edi + hozirgi-kelasi zamon” modeli eng faol va ko‘p qo‘llaniladigan konstruktsiyalardan biri hisoblanadi. Ushbu konstruktsiya o‘tgan zamondagi davomiy jarayonni ifodalash bilan birga, diskurs darajasida muhim funksiyani bajaradi. Xususan, u narrativ matnlarda fon harakatni ifodalab, asosiy voqealarning semantik tashkil topishiga xizmat qiladi.

Mazkur konstruktsiyani tahlil qilishda Reichenbach (1947) tomonidan ishlab chiqilgan vaqt modeli alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu modelga ko‘ra, har qanday fe’l uchta vaqt nuqtasi orqali tavsiflanadi: nutq vaqti (S), hodisa vaqti (E) va nisbiy vaqt (R). “مُضَارِع + كَانْ” konstruktsiyasi aynan shu uchlikning o‘zaro murakkab munosabatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Zamonaviy diskurs lingvistikasi nuqtayi nazaridan qaralganda, ushbu konstruktsiya matn ichidagi vaqt qatlamlarini tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. Hopper (1982) fikriga ko‘ra, til birliklari faqat grammatik emas, balki diskurs funksiyasiga ham ega bo‘lib, ular matnning semantik tuzilishini shakllantiradi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, arab tilidagi murakkab zamon-aspekt konstruktsiyalari hali to‘liq va tizimli o‘rganilmagan. Ayniqsa, “مُضَارِع + كَانْ” konstruktsiyasining struktur, semantik va diskurs xususiyatlarini kompleks tahlil qilish zamonaviy tilshunoslik uchun muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi – arab tilidagi “مُضَارِع + كَانْ” konstruktsiyasining struktur-semantik va diskurs xususiyatlarini aniqlash hamda uning boshqa tillar bilan qiyosiy jihatdan o‘xshash va farqli tomonlarini ochib berishdan iborat.

Metodologiya va adabiyotlar sharhi. Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, arab tilidagi “مُضَارِع + كَانْ” konstruktsiyasining struktur, semantik va diskurs xususiyatlarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot jarayonida zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida bir nechta ilmiy metodlardan kompleks tarzda foydalanildi.

• bibliografik tahlil metodi qo‘llanilib, zamon va aspekt kategoriyalari, shuningdek arab tilidagi fe’l tizimi bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar chuqur o‘rganildi. Xususan, zamonaviy tilshunoslikdagi aspekt nazariyasi (Comrie, 1976), vaqt modeli (Reichenbach, 1947), arab tilining grammatik tizimi (Ryding, 2005; Wright, 1896) hamda zamon-aspekt tipologiyasi (Dahl, 1985)ga oid tadqiqotlar tahlil qilindi. Mazkur manbalar tadqiqotning nazariy asosini shakllantirdi.

• tavsifiy (deskriptiv) metod yordamida “مُضَارِع + كَانْ” konstruktsiyasining grammatik tuzilishi tizimli ravishda bayon qilindi. Konstruktsiya tarkibidagi komponentlar – yordamchi fe’l كَانْ kāna – “edi / bo’lgan” va asosiy fe’l مضارع muḍāri’un – “hozirgi-kelasi zamon” alohida ajratilib, ularning grammatik va funksional xususiyatlari tavsiflandi.

• Struktur-semantik tahlil metodi asosida mazkur konstruktsiyaning ichki semantik tuzilishi o’rganildi. Bunda har bir komponentning umumiy ma’noga qo’shayotgan hissasi aniqlanib, konstruktsiyaning davomiylik (progressivlik), fon (background), takroriylik (habituality) va kontekstual vaqt munosabatlarini ifodalash xususiyatlari tahlil qilindi. Ayniqsa, yordamchi fe’l orqali ifodalanadigan nisbiy vaqt (reference time) va asosiy fe’l orqali ifodalanadigan jarayon semantikasi o’zaro bog’liqlikda ko’rib chiqildi.

• qiyosiy (kontrastiv) metod yordamida arab tilidagi mazkur konstruktsiya ingliz va o’zbek tillari bilan taqqoslandi. Jumladan, arab tilidagi “مُضَارِع + كَانْ” modeli ingliz tilidagi Past Continuous (was/were + V-ing) hamda o’zbek tilidagi “-ayotgan edi” konstruktsiyasi bilan qiyoslanib, ularning o’xshash va farqli jihatlari aniqlashtirildi. Bu yondashuv tarjima ekvivalentligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

• diskurs (matn) tahlili metodi ham keng qo’llanildi. Mazkur metod yordamida “مُضَارِع + كَانْ” konstruktsiyasining narrativ matnlardagi funksiyasi, xususan fon harakatni ifodalash, asosiy va ikkilamchi voqealarni ajratish hamda vaqt qatlamlarini tashkil etishdagi roli tahlil qilindi. Bu jarayonda konstruktsiyaning matn ichidagi pragmatik va kommunikativ vazifalari ham hisobga olindi.

• kontekstual tahlil metodi asosida konstruktsiyaning turli kontekstlarda (badiiy, publitsistik, ilmiy matnlarda) qo’llanishi o’rganildi. Bu esa uning polifunksional xususiyatga ega ekanligini aniqlash imkonini berdi.

Mazkur metodlarning uyg’un qo’llanishi tadqiqot obyektni har tomonlama, tizimli va chuqur o’rganish imkonini berib, “مُضَارِع + كَانْ” konstruktsiyasining lingvistik tabiatini to’liq ochib berishga xizmat qildi.

Natijalar va muhokama. Mazkur tadqiqot natijalari arab tilidagi “مُضَارِع + كَانْ” konstruktsiyasining struktur, semantik va diskurs xususiyatlari murakkab va ko’p qatlamli ekanligini ko’rsatdi. Tahlillar shuni aniqladiki, ushbu konstruktsiya oddiy grammatik birlik emas, balki zamon-aspekt ma’nolarining integratsiyalashgan modelidir.

1. Konstruktsiyaning struktur modeli va grammatik xususiyatlari. Tadqiqot natijalariga ko’ra, “مُضَارِع + كَانْ” konstruktsiyasi analitik fe’l modeli sifatida quyidagi struktur sxema asosida shakllanadi: كَانْ (yordamchi fe’l) + مضارع فعل (asosiy fe’l)

Mazkur modelda: كَانَ kāna – “edi / bo‘lgan” – o‘tgan zamon va nisbiy vaqtni (reference time) bildiradi. مضارع muḍāri‘un – “hozirgi-kelasi zamon” – harakatning davomiy yoki jarayon holatini ifodalaydi. Misollar:

1. كَانَ الدَّرْسَ يَكْتُبُ الطَّالِبُ kāna aṭ-ṭālibu yaktubu ad-darsa – “Talaba darsni yozayotgan edi”
2. كُنَّا فِي نَسِيرٍ فِي الطَّرِيقِ kunnā nasīru fī aṭ-ṭarīqi – “Biz yo‘lda ketayotgan edik”
3. كَانَتِ الْبِنْتُ تَقْرَأُ الْكِتَابَ kānat al-bintu taqra‘u al-kitāba – “Qiz kitob o‘qiyotgan edi”

Tahlillar natijasida, konstruktsiyada asosiy semantik yuk مضارع fe‘l zimmasiga tushadi, كَانَ esa zamon va kontekstni belgilovchi vosita sifatida xizmat qiladi.

2. Konstruktsiyaning asosiy semantik funksiyalari.

Tadqiqot natijasida mazkur konstruktsiyaning bir nechta asosiy semantik funksiyalari aniqlashtirildi:

2.1. Davomiylik (progressivlik) ma’nosi: Konstruktsiyaning eng asosiy funksiyasi – o‘tgan zamondagi davomiy jarayonni ifodalashdir. Misollar: كَانَ الرَّسَالَةَ يَكْتُبُ kāna yaktubu ar-risālata – “U xat yozayotgan edi”

كَانُوا الْعَرَبِيَّةَ اللُّغَةَ يَدْرُسُونَ kānū yadrusūna al-lugata al-‘arabiyyata – “Ular arab tilini o‘rganayotgan edilar”. Bu holatda konstruktsiya ingliz tilidagi Past Continuous bilan semantik jihatdan mos keladi.

2.2. Fon (background) ma’nosi: Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, mazkur konstruktsiya ko‘pincha narrativ matnlarda fon harakatni ifodalash uchun ishlatiladi. Misol: كَانَتْ دَخَلْتُ kāna yaqra‘u ‘indamā dakhaltu – “Men kirganimda u o‘qiyotgan edi”. Bu yerda:

- دَخَلْتُ dakhaltu – “Men kirdim” – asosiy voqea
- كَانَتْ يقرأ kāna yaqra‘u – “u o‘qiyotgan edi” – fon

Bu konstruktsiya voqealar ketma-ketligini tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi.

2.3. Takroriylik (habitual) ma’nosi: Ba’zi kontekstlarda konstruktsiya odatiy yoki takroriy harakatni bildiradi. Misol: كَانَتْ كُلَّ يَوْمٍ الْمَدْرَسَةَ إِلَى يَذْهَبُ kāna yadhhabu ilā al-madrasati kulla yawmin – “U har kuni maktabga borar edi”

Bu holatda konstruktsiya oddiy davomiylikdan ko‘ra kengroq semantik ma’noga ega bo‘ladi.

2.4. Parallel jarayonlar ifodasi. Konstruktsiya bir vaqtning o‘zida sodir bo‘layotgan bir nechta harakatni ifodalashda ham qo‘llanadi. Misol: كَانَتْ الْأُمُّ تَطْبُخُ وَالْأَوْلَادُ يَلْعَبُونَ kānat al-ummu taṭbukhū wa al-awlādu yal‘abūna – “Ona ovqat tayyorlayotgan edi, bolalar o‘ynayotgan edi”. Bu konstruktsiya matnda dinamiklikni oshiradi.

2.5. Vaqt qatlamlarini tashkil etish funksiyasi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, konstruktsiya matnda turli vaqt qatlamlarini tashkil etishda muhim vosita hisoblanadi. Masalan: asosiy voqea (foreground) fon voqea (background) Bu esa matnning semantik strukturasi shakllantiradi.

3. Diskurs va pragmatik xususiyatlari

Tadqiqot natijalari konstruktsiyaning nafaqat grammatik, balki diskurs darajasida ham muhim ekanligini ko‘rsatdi. Aniqlanishicha, “مُضَارِع + كَانْ” konstruktsiyasi:

- fon harakatni ifodalaydi
- voqealar oqimini sekinlashtiradi
- narrativ strukturani tashkil qiladi
- o‘quvchiga kontekst beradi

Masalan: كَانَ الرَّجُلُ دَخَلَ وَيَكِي dakhala ar-rajulu wa kāna yabkī – “Erkak kirdi va yig‘layotgan edi”. Bu yerda konstruktsiya hissiy fonni kuchaytiradi.

4. Qiyosiy tahlil natijalari

Arab tilidagi konstruktsiya ingliz va o‘zbek tillari bilan qiyoslanganda quyidagi natijalar aniqlandi:

Til	Model Semantik xususiyat
Arab tili	مُضَارِع + كَانْ davomiy o‘tgan
Ingliz tili	was/were + V-ing progressiv
O‘zbek tili	-ayotgan edi davomiy

Biroq tahlillar shuni ko‘rsatdiki, arab tilidagi konstruktsiya ingliz tilidagiga nisbatan kengroq semantik va diskurs funksiyaga ega.

5. Konstruktsiyaning polifunksionalligi

Tadqiqot natijalari mazkur konstruktsiyaning polifunksional xarakterga ega ekanligini ko‘rsatdi. Ya’ni, u:

- grammatik funksiya
- semantik funksiya
- diskurs funksiyasi ni birlashtiradi.

Arab tilidagi “مُضَارِع + كَانْ” kāna + muḍāri‘un – “edi + hozirgi-kelasi zamon” konstruktsiyasi zamon-aspekt tizimining eng muhim va murakkab elementlaridan biri hisoblanadi. Mazkur konstruktsiyani tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, uni faqat an’anaviy grammatik yondashuv asosida izohlash yetarli emas. Aksincha, ushbu birlikni struktur-semantik, funksional va diskurs yondashuvlar integratsiyasi asosida tahlil qilish zarur.

Birinchidan, konstruktsiyaning tabiati zamon kategoriyasidan ko‘ra ko‘proq aspektual xarakterga ega ekanligi aniqlandi. Ya’ni, u voqeaning qachon sodir bo‘lganini emas, balki uning qanday kechganini ifodalaydi. Shu jihatdan, mazkur konstruktsiya progressiv aspektning arab

tilidagi asosiy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu natija zamon-aspekt nazariyasini ishlab chiqqan Bernard Comrie fikrlari bilan to‘liq mos keladi. Unga ko‘ra, ko‘plab tillarda aspekt zamonga nisbatan ustuvor kategoriya hisoblanadi.

Ikkinchidan, konstruktsiya murakkab vaqt strukturasi ega birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat Hans Reichenbach tomonidan ilgari surilgan uch komponentli vaqt modeli orqali tushuntiriladi. Ushbu modelga ko‘ra, har qanday fe‘l uchta vaqt nuqtasi asosida tavsiflanadi:

- Speech Time (nutq vaqti)
 - Event Time (hodisa vaqti)
 - Reference Time (nisbiy vaqt)
- “مُضَارِع + كَانْ” konstruktsiyasida:

- كَانْ → Reference Time (o‘tgan fon)
- مضارع → Event Time (davomiy jarayon)

Bu esa konstruktsiyaning oddiy zamon shakli emas, balki murakkab vaqt konfiguratsiyasi ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli uni faqat “o‘tgan zamon” deb talqin qilish ilmiy jihatdan yetarli emas.

Uchinchidan, diskurs nuqtayi nazardan ushbu konstruktsiya matnning semantik tuzilishini shakllantiruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Paul Hopper tomonidan ilgari surilgan diskurs nazariyasiga ko‘ra, har qanday narrativ matn ikki asosiy qatlamdan iborat:

- foreground (asosiy voqealar)
- background (fon voqealar)

Arab tilida:

- ماضٍ (oddiy fe‘l) → asosiy voqea
- مُضَارِع + كَانْ → fon

Misol: دَخَلَ الرَّجُلُ الْبَيْتَ وَكَانَ الرَّجُلُ دَخَلَ وَكَانَ dakhala ar-rajulu wa kāna yabkī – “Erkak kirdi va yig‘layotgan edi”.

Bu yerda: دخل dakhala – “(u) kirdi” → voqeani oldinga siljitadi

كان يبيكī kāna yabkī – “u yig‘layotgan edi” → voqeaga fon yaratadi. Bu esa konstruktsiyaning diskurs tashkil etishdagi rolini aniq ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, konstruktsiyaning polifunksional xususiyati aniqlanadi. Ya’ni, u bir vaqtning o‘zida bir nechta funksiyani bajaradi:

- grammatik (zamon ifodasi)
- semantik (davomiylik, takroriylik)
- diskurs (fon yaratish)

Bu jihat Östen Dahl tomonidan ilgari surilgan zamon-aspekt tizimlarining tipologik nazariyasi bilan hamohangdir.

Beshinchidan, qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, ushbu konstruktsiya ingliz tilidagi Past Continuous bilan ma'lum darajada o'xshash bo'lsa-da, ular to'liq ekvivalent emas. Ingliz tilida "was/were + V-ing" shakli asosan grammatik va aspektual ma'noni ifodalasa, arab tilida "كَانَ + مُضَارِع" qo'shimcha ravishda diskurs funksiyasini ham bajaradi. Shu sababli bu konstruktsiyani faqat grammatik darajada emas, balki funksional darajada ham qiyoslash zarur.

Oltinchidan, tarjima nuqtayi nazardan ushbu konstruktsiya muhim muammolarni keltirib chiqaradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, konstruktsiyani noto'g'ri tarjima qilish semantik yo'qotishga olib keladi. Masalan:

- كَانُ يَكْتُبُ kāna yaktubu → "yozdi" (noto'g'ri)
- كَانُ يَكْتُبُ kāna yaktubu → "yozayotgan edi" (to'g'ri)

Bu holat aspekt kategoriyasining tarjimada hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Yettinchidan, konstruktsiya arab tilining umumiy rivojlanish tendensiyasini aks ettiradi. Zamonaviy tilshunoslikda ko'plab tillarda murakkab grammatik ma'nolar morfologik emas, balki sintaktik konstruktsiyalar orqali ifodalanishi kuzatiladi. Arab tilida ham aynan shunday jarayon kuzatiladi. Bu holatni Joan Bybee va boshqa tipologik tadqiqotchilar ham tasdiqlaydi.

Sakkizinchidan, konstruktsiyaning kontekstga bog'liqligi uning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Bir xil konstruktsiya turli kontekstlarda turli ma'nolarni ifodalashi mumkin:

- davomiylik
- takroriylik
- fon
- parallel harakat

Bu esa uning semantik elastikligini ko'rsatadi.

To'qqizinchidan, ushbu konstruktsiya arab tilini o'qitishda ham muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar ko'pincha bu konstruktsiyani oddiy o'tgan zamon bilan adashtiradi. Shu sababli uni o'qitishda aspekt va diskurs yondashuviga asoslangan metodika zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, arab tilida zamon-aspekt tizimini tushunish uchun alohida fe'l shakllarini emas, balki konstruktsiyalar tizimini o'rganish zarur. Bu esa arab tilini o'rganishda yangi metodologik yondashuvni talab qiladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda arab tilidagi كَانُ + مُضَارِع konstruktsiyasining struktur, semantik va diskurs xususiyatlari kompleks tahlil qilindi. Natijada ushbu birlik oddiy grammatik shakl emas, balki zamon va aspekt kategoriyalarining kesishuvida yuzaga keladigan murakkab analitik

konstruksiya ekani aniqlandi. U yordamchi fe'l كَان va asosiy fe'ning muḍāri' shakli orqali hosil bo'lib, arab tilida zamon-aspekt ma'nolari ko'pincha morfologik emas, balki sintaktik-konstruksiyaviy vositalar yordamida ifodalanishini ko'rsatadi. Tahlil jarayonida mazkur konstruksiyaning davomiylik, fon, takroriylik va parallel jarayonlar kabi asosiy semantik funksiyalari belgilandi. Ayniqsa, uning narrativ matnlarda voqealar fonini yaratish, vaqt qatlamlarini tashkil etish hamda asosiy va ikkilamchi hodisalarni ajratishdagi diskursiv roli muhim ilmiy xulosa sifatida asoslandi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, ushbu konstruksiya ingliz tilidagi Past Continuous hamda o'zbek tilidagi "-ayotgan edi" modeliga qisman mos kelsa-da, semantik va diskurs jihatdan ulardan kengroq funksional imkoniyatga ega. Shu bois uni tarjima qilishda kontekst, narrativ vazifa va pragmatik yuklamani hisobga olish zarur. Umuman, tadqiqot natijalari arab tilidagi zamon-aspekt tizimini konstruksiyaviy-semantik asosda talqin etish lozimligini ko'rsatadi hamda arab tilshunosligida murakkab fe'l konstruksiyalarini o'rganishda yangi metodologik yondashuvlar uchun ilmiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Comrie, B. (1976). Aspect. Cambridge: Cambridge University Press, 142 p. (in English).
2. Reichenbach, H. (1947). Elements of Symbolic Logic. New York: Macmillan, 444 p. (in English).
3. Ryding, K. C. (2005). A Reference Grammar of Modern Standard Arabic. Cambridge: Cambridge University Press, 738 p. (in English).
4. Wright, W. (1896). A Grammar of the Arabic Language. Cambridge: Cambridge University Press, 466 p. (in English).
5. Benmamoun, E. (2000). The Feature Structure of Functional Categories. Oxford: Oxford University Press, 226 p. (in English).
6. Dahl, Ö. (1985). Tense and Aspect Systems. Oxford: Blackwell, 213 p. (in English).
7. Bybee, J., Perkins, R., Pagliuca, W. (1994). The Evolution of Grammar. Chicago: University of Chicago Press, 398 p. (in English).
8. Fassi Fehri, A. (1993). Issues in the Structure of Arabic Clauses and Words. Dordrecht: Kluwer Academic Publishers, 312 p. (in English).
9. Holes, C. (2004). Modern Arabic: Structures, Functions and Varieties. Washington: Georgetown University Press, 406 p. (in English).
10. Lyons, J. (1977). Semantics. Cambridge: Cambridge University Press, 897 p. (in English).

11. Palmer, F. R. (1971). Grammar. Harmondsworth: Penguin Books, 240 p. (in English).
12. Hopper, P. (1982). Discourse and Syntax. New York: Academic Press, 320 p. (in English).
13. Givón, T. (1984). Syntax: A Functional-Typological Introduction. Amsterdam: John Benjamins, 464 p. (in English).
14. Smith, C. (1997). The Parameter of Aspect. Dordrecht: Kluwer, 309 p. (in English).
15. Klein, W. (1994). Time in Language. London: Routledge, 256 p. (in English).